MATBUOT TILI–NAMUNAVIY TILDIR

To‘rayeva Zarrina Abdimurot qizi
Termiz davlat universiteti lingvistika
yo‘nalishi 1-kurs magistranti
xurramovazarrina7@gmail.com

Annotatsiya: Matbuot tili o‘zbek adabiy tilining tarkibiy qismidir. Shu sababli matbuot tilining lisoniy va uslubiy xususiyatlarini o‘rganish o‘zbek adabiy tilining rivojlanishi,adabiy normalarning turg‘unlashuviga hos ba’zi qonuniyatlarni belgilashga xizmat qiladi. Ushbu tezisda “Surxon tonggi”, “Ayol va Zamon”, “Xalq yo‘li”, “Tibbiyot va Hayot” kabi mahalliy nashrlarning tili va uslubiga doir masalalar ko‘riladi.

Kalit so‘zlar: Gazeta tili, axborot janrlari, tahliliy janrlar, korrespondensiya, neologizm, okkazionalizm.

Kirish:

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan kundan boshlab ommaviy axborot vositalari(gazeta, jurnal, radio, televideniye)ga katta e’tibor berildi. Bugungi kunda ular jamiyat hayotining muhim axborot vositasiga aylangan. Ommaviy axborot vositalariga ko`rsatilayotgan katta e’tibor tufayli ularning ta’sirchanligi tobora oshib bormoqda. OAV matnlari o'z mohiyatiga ko'ra jurnalist yoki matbuot hodimlari tomonidan o'quvchi, tinglovchi, tomoshabin uchun tayyorlanadigan matnlar bo'lib, sodir bo'layotgan til jarayonlarini eng tez aks ettiradigan til qatlamidir. Shu tufayli, matbuotda tarixan eskirgan so‘zlar bilan birgalikda tilimizga yangi o‘zlashgan so‘zlarni ham uchratamiz.

O‘zbek tilshunosligida publisistik uslub T.Qurbonov tomonidan maxsus o‘rganildi. Bu uslub OAV, xususan, gazeta, jurnal, radio, televideniye material-lari uslubidir. Tilshunoslik va jurnalistikada "publisistika janrlari", "gazeta janrlari" terminlari hozirgi vaqtda kam ishlatilmoqda. T.Qurbonov tadqiqotlarida publisistik uslub janrlari ajratib ko‘rsatilgan. U publisistik uslubning quyidagi janrlarini qayd etgan: xabar, reportaj, korrespondensiya, maqola, siyosiy maqola, siyosiy, iqtisodiy va ilmiy xarakterdagi maqola, ocherk, felyeton, pamflet, lavha, partiya va hukumatning direktiva va qarorlari, axborot, turli sharhlar, taqriz, ijtimoiy-siyosiy esse, ochiq xat, xalqaro xabar, chaqiriq. Ushbu tadqiqotimizda publitsistik janrlar, matbuot tilining shakllanish va rivojlanish bosqichlari, mazkur tilning lisoniy va uslubiy xususiyatlarini tanlangan mahalliy nashrlar misolida tahlilga tortamiz.

Asosiy qism:

O‘zbek vaqtli matbuoti janrlari va ularning til xususiyatlari, gazeta tilida ekspressivlikni ifoda qiluvchi vositalar, gazeta tilida normaga rioya qilish, buning nutq madaniyati uchun ahamiyati, matbuot tili rivojida zamonaviy tendensiyalarni o‘rganish, fikrimizcha, o‘zbek tilshunosligining dolzarb muammolari qatoriga kiradi. Shu sababli matbuot tili mazmunli,ta’sirchan va o‘qimishli bo‘lishi uchun gap qurilishiga,uslubiy xususiyatlariga hamda punktuatsion belgilarning to‘g‘ri qo‘llanishiga e’tibor qaratish lozim.

Publitsistik uslubda shevachilikka o‘rin qoldirilmaydi.Chunki bir sheva vakillari uchun tushunarli so‘zlar ikkinchi sheva vakillariga noaniq bo‘lishi mumkin.Publitsistik asar esa omma uchun mo‘ljallangan bo‘ladi.

Gazetaning asosiy xususiyatlaridan biri axborot yetkazishdir. Bu vazifani bajarishda mahalliy matbuot nashrlarimiz tezkorlik,aniqlik, ixchamlik hamda uslubiy muvofiqlik kabi mezonlarga amal qilmog‘i lozim. Gazeta tiliga oid ba’zi o‘quv qo‘llanmalari yaratildi, bir qator maqolalar, risolalar nashr etildi. Shunga qaramay bu soxadagi ayrim muammolar davr talabiga mos ravishda o‘rganishni talab qiladi. Biroq ushbu tilning yutuqli taraflari ham talaygina jumladan, frazeologizmlar gazeta tilida ekspressivlikni ifodalovchi vosita hisoblanadi, shuningdek gazetada

okkazionalizmlar va neologizmlarning qo‘llanishi uning davr bilan hamohangligini ko‘rsatadi. “Surxon tonggi”, “Ayol va Zamon”, “Xalq yo‘li”, “Tibbiyot va Hayot” kabi mahalliy nashrlarning til jihatidan oddiy, sodda, tilning neytral vositalariga boyligi gazetalarning muhim omilidir.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, gazeta tili namunaviy til sifatida nutq madaniyatini oshirish, adabiy normani targ‘ib etishda o‘ziga xos ko‘zgu vazifasini bajaradi. Undagi ayrim kamchiliklar aniqlanib, gazeta tilining holatiga va til taraqqiyotidagi o‘zgarishlarga tegishlicha baho berib boriladi. Bizning fikrimizcha, jurnalistlarning mahorati, tahririyatlar faoliyati ham turli soha mutaxassislarining faoliyati kabi jumladan, shoir va yozuvchilarnikidek, atroflicha o‘rganilishi lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1.Sh.Barnoyeva.Matbuot tilining uslubiy xususiyatlari.// «Научный импульс» ж .2023.№ 9. Б.1316

2. Курбанов Т. Публицистический стиль современного узбекского литературного языка: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. -Ташкент, 1987. -22 с.

3. Абдусаидов А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари. Автореф. Дис...канд.филол.наук.-Ташкент, 2005.-с.3

4. E. Begmatov, A. Boboeva, M. Asomiddinova, B. Umurqulov. O‘zbek nutqi madaniyati ocherklari. Toshkent: Fan.2018

WORDLY KNOWLEDGE